

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 55 (1116), 2024-yil 16-mart, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official




yuz.uz_news



yuz

KO‘P QIRRALI O‘ZBEKISTON — QOZOG‘ISTON HAMKORLIGINI
TUBDAN KENGAYTIRISH ZARURLIGI TA‘KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
15-mart kuni Qozog‘iston Respublikasi Bosh vaziri Oljas Bektenov boshchiligidagi
hukumat delegatsiyasini qabul qildi.



Davlatimiz rahbari Bosh vazir Oljas Bektenovni yaqinda ushbu lavozimga tayinlangani bilan samimiy qutladi va mas’uliyatli faoliyatida katta muvaffaqiyatlar tiladi.

O‘z navbatida, Qozog‘iston Hukumati rahbari O‘zbekiston Prezidentiga Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuvda O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasidagi ko‘p qirrali sheriklikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi. Xususan, bo‘ljak oliy darajadagi qo‘shma tadbirlarga tayyorgarlik doirasida hamkorlikning yangi kun tartibini shakllantirishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish jarayonida, shu jumladan, vakolatli vazirlar boshchiligidagi ishchi guruh doirasida to‘siqlarni bartaraf etish va o‘zaro kelishilgan choralarni ko‘rish zarurligi qayd etildi.

Mamlakatlarimiz strategik sherikligida muhim yo‘nalishlar bo‘lgan sanoat, transport va logistika kooperatsiyani kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Ustuvor tarmoqlardagi investitsiya dasturlarining yangi portfelini hamda transport va energetika sohasidagi mintaqaviy ahamiyatga ega infratuzilmaviy loyihalarni faol ilgari surish maqsadga muvofiq ekanini ta’kidlandi.

O‘zbekiston Prezidenti O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni tubdan kengaytirish maqsadida hukumatlar darajasida yaqin va tizimli aloqalarni davom ettirish muhimligini qayd etdi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
Q A R O R I2025-YILDA UNESCO BOSH KONFERENSIYASI
43-SESSIYASINING SAMARQAND SHAHRIDA O‘TKAZILISHIGA
TAYYORGARLIK KO‘RISH BO‘YICHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

Keyingi yillarda O‘zbekistonning UNESCO bilan hamkorligi yangi bosqichga ko‘tarildi. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘sinini yanada oshirish va mustahkamlashda, ikki va ko‘p tomonlama hamkorliklarni kengaytirish va chuqurlashtirishda UNESCO muhim platforma vazifasini o‘tab kelmoqda.

Buning natijasida 2017-2023-yillarda milliy madaniy merosimizning 14 ta noyob namunasi UNESCOning ro‘yxatlaridan joy olib, insoniyat merosi sifatida xalqaro

miqyosda e’tirof etildi. Buxoro shahri Ijodkor shaharlar tarmog‘iga kiritildi. 2023-yil sentabr oyida UNESCO Bosh qarorgohida buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligi keng nishonlandi.

Ayniqsa, 2023-yil 7-22-noyabr kunlari Parij shahrida bo‘lib o‘tgan UNESCO Bosh konferensiyasining 42-sessiyasi yakunida O‘zbekiston Respublikasining UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasini (keyingi o‘rinlarda — Sessiya)

2025-yilda Samarqand shahrida o‘tkazish to‘g‘risidagi tashabbusi bir ovozdan qo‘llab-quvvatlangani jahon hamjamiyati tomonidan muhim voqea sifatida e’tirof etildi.

Ushbu nufuzli xalqaro anjumanni yuqori darajada o‘tkazishga har jihatdan puxta tayyorgarlik ko‘rish, shuningdek, O‘zbekiston va UNESCO hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadida:

1. 2025-yilda UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining Samarqand shah-

rida o‘tkazilishiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha **tashkiliy qo‘mita** (keyingi o‘rinlarda — Tashkiliy qo‘mita) tuzilsin hamda uning tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tashkiliy qo‘mita (A.N. Aripov): Sessiyani o‘tkazish bilan bog‘liq barcha tashkiliy masalalarni hal qilib borsin, shuningdek, axborot-tahliliy va boshqa hujjatlarining o‘z vaqtida va sifatli tayyorlanishini ta’minlasin;

Davomi 2-betda

SPORT TURLARINI
OMMALASHTIRISH
REJALARI TAQDIMOT
QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev
yurtimizda og‘ir atletikani hamda
mahallalarda futbol infratuzilmasini
rivojlantirishga oid taqdimot
bilan tanishdi.

Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarning vaqtini mazmunli o‘tkazishda sport katta o‘rin egallaydi. “Besh tashabbus” olimpiadasi, respublika chempionatlari doirasida u keng ko‘lam kasb etmoqda. Shu bilan birga, olimpiada sport turlarini rivojlantirib, mahoratli sportchilarni tayyorlashga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida og‘ir atletika bo‘yicha barcha yosh toifasidagi sportchilar bilan individual ishlash tizimini yaratish hamda ularni professional darajada tayyorlash uchun Og‘ir atletika markazi tashkil etish vazifasi belgilangan.

Ushbu markaz Sport vazirligi huzurida Chirchiq shahrida tashkil etiladi. U ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasi bo‘lib, 7-11-sinf bolalarga saboq beriladi. Ular ilg‘or usullar asosida terma jamoalarga asosiy nomzod sifatida tayyorlanadi. Markaz 2025/2026-o‘quv yilidan faoliyat boshlashi ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashining homiyligida Og‘ir atletika sport klubi tashkil etiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Namangan, Toshkent va Samarqand viloyatida hududiy maktablar ochiladi.

Umuman, bu yo‘nalishni rivojlantirish maqsadida uch yillik dastur ishlab chiqildi. Unda yoshlarning og‘ir atletikaga qiziqishini oshirish, hududlarda sportchilarni uchun yetarli sharoitlar yaratish, seleksiya jarayonlarini raqamlashtirish, malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etib, ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish kabi vazifalar qamrab olingan.

Og‘ir atletikani ommalashtirish maqsadida 3 bosqichli musobaqalar, Markaziy Osiyo va “Uzbekistan Open” ochiq chempionatlarini o‘tkazish rejalashtirilgan.

Yurtimizda eng ommaviy sport turi bu futbol. Shu bois, mahallalarda futbol infratuzilmasini rivojlantirish va tarmog‘ini kengaytirish maqsad qilingan.

Buning uchun mahallalarda mavjud stadionlar va boshqa sport maydonchalaridan samarali foydalaniladi. Ular yo‘q joylarda davlat-xususiy sheriklik asosida shunday inshootlar barpo etiladi. Erkaklar va ayollarning turli yosh toifalari o‘rtasida mahalla terma jamoalari tuziladi. Iqtidorli yoshlar aniqlanib, professional futbol muassasalariga yo‘naltiriladi.

Bu borada mahalladagi yoshlar yetakchilariga O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasining hududiy bo‘linimlari va sport maktablari ko‘maklashadi.

Shuningdek, joriy yildan boshlab, Angliya maktablari futbol assotsiatsiyasi tajribasi asosida 8-11-sinf o‘quvchilari orasidan maktab futbol yetakchisi tanlab olinadi. 12-15 yoshlilar o‘rtasida ikki bosqichli “Mahalla ligasi” hamda 16-30 yosh toifalari orasida uch bosqichli Davlat xavfsizlik xizmati kubogi musobaqalarini o‘tkazish yo‘lga qo‘yiladi.

Bular mahallalardan boshlab futbol infratuzilmasini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni tanlash va qo‘llab-quvvatlash, milliy terma jamoalar uchun sifatli xazina shakllantirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma’qullab, yoshlar o‘rtasida sport va do‘stlik muhitini mustahkamlash, musobaqalarni yuqori tashkiliy darajada o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

MEN NECHUN SEVAMAN
O‘ZBEKISTONNI!VATAN MANZUMASI
YURAKKA JODIR

Vatanni sevmok iymondandir. Iymoni but —

Vatan deydi, el deydi. O‘zligini undan ayro tasavvur qilolmaydi. Xalq shoiri Abdulla Oripovning “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” she’rini o‘qimagan yoxud eshitmagan yurtidoshimiz bo‘lmasa kerak. Shoir kuylaganidek, inson bolasi qachon va qayerda bo‘lmasin, Vatan deydi, ona deydi. Bir siqim yurt tuprog‘ini ko‘ziga to‘tiyo aylaydi.

Mana, bir necha kundirki, poytaxtimizdagi muhtasham “Turkiston” san’at saroyida “Vatan manzumasi” nomli adabiy-ma’rifiy dastur namoyish etilmoqda. Bu yuksak vatanparvarlik, mardlik va jasoratni tarannum etish, tinchlik va osoyishtalikni asrab-avaylash, el-yurt farovonligi uchun safarbarlik singari ezgu fazilatlar aks ettirilgan navbatdagi namoyishdir.

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyevning shu yil yanvar oyida o‘tkazilgan Xavfsizlik

kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida “Barchamiz, eng avvalo, Vatan himoyachisi, tinchlik posboni bo‘lishimiz zarur”, degan so‘zlari butun xalqimizning qalbidan joy oldi desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Mamlakatimizda mana shu ezgu g‘oyani amalga oshirish maqsadida barcha sohalarda, jumladan, harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishida ham muhim ishlar bajarilmoqda.

Davomi 2-betda

MAHALLABAY ISHLASH TIZIMI

odamlarda tadbirkorlik ko‘nikmasini
oshirib, ishsizlikni bartaraf etishga xizmat qilmoqda



Mamlakatimizning barqaror rivojlanishi, aholi farovonligini oshirish bilan bog‘liq muhim vazifalarni hayotga tatbiq etishda mahalla institutining o‘rni beqiyos. Shu bois, keyingi yillarda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida mahallaning mavqei oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning 2021-yil 3-dekabr-dagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi Farmoni bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirishda muhim omil bo‘layotir. Farmonda aholining tadbirkorlik tashabbusini amalga oshirishga moliyaviy ko‘maklashish, daromadli mehnat bilan bandligini ta’minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish borasida ustuvor vazifalar belgilangan. Bu yo‘nalishdagi ishlarda “mahalla yetilligi”, jumladan, hokim yordamchisi faoliyati yo‘lga qo‘yilgani ayni muddao bo‘lmoqda.

Albatta, mahallada mavjud muammolar va aholining kundalik masalalarini birgina mahalla tizimi xodimlari tomonidan bartaraf etish mushkul. Shu sababli, bu jarayonda har bir soha mas’ullarining ishtiroki muhim. Joylarda olib borilayotgan mahallabay ishlash mexanizmining ham asosini ana shu tamoyil — barcha soha vakillarining hamjihat bo‘lib, hududlardagi masalalarni yechishga kompleks yondashishi tushuniladi. Mahallabay ishlash, bu barcha soha mutasaddilarning bir muht bo‘lib, muammolar va aholi turmushidagi muhim masalalarni birgalikda hal etishning yangicha mexanizmidir.

Davomi 3-betda



YANGI O'ZBEKISTON ORZUSI

“QO‘YVOR NABIRANGNI,
OTAJONIM, SHARQ...”

Atoqli shoirimiz Abdulla Oripovning ushbu misrasini o'qiganimda men talaba edim. Balki o'sha paytda bu she'rning ma'nosini chuqur tushunmagandirman. Shoir bu misrani bitayotganida his qilgan tuyg'ular qalbidan o'tmagandir...

Abdualol TAYPATOV,
jurnalist

Lekin, mana, oradan ko'p yillar o'tib, nabiram — katta qizimning farzandi sabab bu she'r, to'g'rirog'i, shu bir misra lop etib yana yodimga tushdi va bu gal men Abdulla Oripovni, u ilgari surgan falsafani, g'oyani tushundim. Shoimning buyukligi, istiqbolni ko'ra olish qobiliyatiga yana bir karra tan berdim.

Nabiram Madina bolaligidan ko'p narsaga qiziquvchan bo'lib ulg'aydi. Rasm chizishga qiziqib, to'garakka qatnadi. U chizgan suratlar hozir qizimning mehmonxonasi devorlarini bezab turibdi. Keyin dutor chalishga qiziqdi, o'rgandi. Ayni paytda bu sozda bir necha mumtoz kuy chala oladi.

O'smirlik injiqliklari ortda qolib, maktabni oltin medal bilan bitirdi. Ota-onasi biroz o'jar, biroz erkatoy, aytganini qildiradigan bo'lib ulg'aygan bu farzandining kelajagidan tashvishga tusha boshladi. Kelgusida qanday odam bo'larkan, ro'zg'or ishlarga e'tiborsizroq bu qiz mustaqil qanday ro'zg'or tutarkan? Bu gaplarni ular oshkora aytmasa-da, bobo sifatida his qilardim. Balki menga shunday tuyulgandir.

Uylariga borganimda nabiram oldimga kirar va ko'proq suhbatlashishga intilardi. Uning qiziqish va savollarining adog'i yo'q edi. Bir safar borganimda qayerda o'qimoqchi ekaniga qiziqdim.

— Bobo, siz menga yordam bering, dadam bilan oyim ko'nmayapti, — dedi Madina. — Yaponiyada o'qimoqchiman!

Uning ko'zlari yonardi. Men nigohimni olib qochdim: “Bu qizi tushmagur kinga o'xshadi?”.

Dabdurustdan aytilgan iltimosiga nima



Biroz o'ylanib qoldim. Madinaning ota-onasi o'ylagan xavotir menga ham o'tdi: “Qiz bola bo'lsa...”.

— O'zimizda ham yaxshi institutlar bor-ku, qizim. Kim bo'lmoqchisan?



Bizdan xorijga chiqib ketayotgan oddiy oilalarning farzandlari bir kun kelib yirik shaxslar — turli sohaning bilimdon, malakali mutaxassislariga aylanadi va xalqimiz mana shu yo'l bilan dunyoning barcha davlatida mustahkam o'rnashadi. Dunyoning hamma burchagida vatandoshlarimiz muqim o'rnashib, ishlasa, farovon yashasa, bu yaxshi-ku!

Xayolim bolalikka, maktabda o'qib yurgan yillarga olib qochdi. Qaysidir sinfda adabiyot o'qituvimiz “Kim bo'lmoqchiman?” mavzusida insho yozdirdandi. Shunda kimdir o'qituvchi, kimdir injener, kimdir rais bo'lmoqchiman, degan bo'lsa, bir sinfdosh qizimiz uchuvchi bo'laman, deb

Ayni paytda o'sha o'qituvchining holatida edim. Maktabni bitirguniga qadar bor-yo'g'i tuman markaziga ikki-uch marta borgan, hali viloyat markazini, mamlakat poytaxtini ham ko'rmagan mendek insonning nabirasi bugun dunyoning bir chekkasidagi olis davlatda, tili, madaniyati, qadriyatleri, turmush tarzi begona odamlar orasida o'qiyman deb ko'zi yonib tursa, bu bobo nima desin, xursand bo'lsinmi yo yig'lasin?!

Xullas, Madina yaponlarning o'zi Toshkentda ochgan kursga qatnab, yapon tilini o'rgana boshladi. Endi uylariga borganimda suhbatimiz faqat Yaponiya haqida bo'lardi. U qisqa muddatda yapon tilini o'rganib, sertifikat oldi. Yaponiya haqida shunday ko'p ma'lumot yig'diki, biz ham bu davlatga qiziqib, ko'p narsa bilib oldik.

Qisqasi, barcha rasmiy hujjatlari tayyor bo'lgach, Toshkentdan boshqa joyga chiqmagan, “dom” sharoitida yashagan, nari borsa, ota-onasi tug'ilib o'sgan qishloqqa yozgi ta'til paytlari borgan 18-19 yoshli qiz bahorning ilk kunlarida samolyotga o'tirdi-yu, biror tanishi bo'lmagan begona yurt — olis Yaponiyaga uchdi-ketdi.

Madinani samolyotga kuzatgani chiqqanimizda ota-onasi qanday tuyg'ularni his qilganini bilmadim, lekin men qattiq hayajonlandim. Bu qizdagi jur'at, aytishim mumkinki, jasorat, maqsad sari dadil intilish hayajonlantirdi. U bu mustaqil hayot yo'lini o'zi tanladi...

Hozir nevaram bilan har kuni telefonda gaplashib turamiz. Ham ishlayapti, ham o'qiyapti. U shunday jo'shib gapiradiki, telefonni ko'yging kelmaydiki.

Kuni kecha ham gaplashdik. So'zlari dadil, ko'rinishi yaxshi, chehrasi ochiq, hali ketganiga bir yil bo'lmasa-da, ancha ulg'ayibdi, nazarimda. Yashashi, kundalik xarajati bilan qiziqdim.

— Uydan pul olmayapman, endi biroz pul jamg'aryapman. Bu yerda hammasi yaxshi, lekin O'zbekistonimizni yanayam ko'proq yaxshi ko'rib qoldim, — deydi u.

O'qishni bitirib, nabiram qanday mutaxassis bo'lishini va u O'zbekistonda qayerda ishlashini tasavvur qilolmayman. Lekin shuni aniq bilaman va ishonaman: u mustaqil inson bo'lib qaytdi!

Odatda yoshi kattalar yosh avlodni

ko'p ham qabul qila olmaydi. Men ham ulardan biriman. Yoshlarning andishasizligi, betgachoparliligi, biz ko'nikkan, hayotimizga singib ketgan ba'zi odatlarni inkor qilishi, telefonga ruju qo'ygani, kiyinishi va hokazolar bizga yoqmaydi. Bir kuni Inha universitetida o'qiydigan katta nabiram futbolka kiyib o'qishga otlamayotganini ko'rib qolib, urishdim: “Odamga o'xshab kiyinib yursang bo'lmaydimi? Hech bo'lmasa, o'qishga borayotganingda”. U kulib qo'ydi-yu, tashqariga otildi. Kechqurun televizorda ne ko'z bilan ko'rayki, bir tuman hokimi — nabiramdan chamas 7-8 yosh katta kishi nabiramnikiga o'xshagan libosda intervyu berardi. O'yladim: “Demak, biz eskiribmiz. Bu kiyim hozir urfda ekan”. Shundan keyin nabiramga gapirmay qo'ydim...

Biroq Madina sa'y-harakati bilan bugungi yoshlar haqidagi fikrlarimni ijobiy tomonga o'zgartirib ketdi. Yoshlarimiz orasida iste'dodli, o'qishga, o'rganishga tashna, intiluvchan, qat'iyatli, jasur yigit-qizlar ko'pligiga ishonaman. Nabiram bahona xorijga o'qishga, ishga chiqib ketayotgan millatdoshlarimiz haqida ba'zi mulohazalarimni bildirish istagi paydo bo'ldi.

Bugun O'zbekiston dunyoga, dunyo O'zbekistonga ochildi. Mamlakatimiz aholisi soni 37 millionga yaqinlashib qoldi. Nasib bo'lsa, yana besh-o'n yilda 50 million nufusga ega katta davlat bo'lamiz. Buncha odamni boqish, ish o'rni yaratishning o'zi bo'lmaydi. Shunday ekan, ba'zi yurtdoshlarimizning migrantlarimizni Vatanga qaytarish kerak, degan gaplari, chaqiriqlari asossizdek ko'rinadi.

Chet elga ish izlab, pul topish maqsadida chiqib ketayotgan yoshlarimizni qonuniy asosda yuborishimiz, o'zga davlatlarda ularning haq-huquqlarini himoya qilishimiz zarur. Avvalo, ularni bu yerda qisqa muddatli kurslarda o'qitib, kasb-hunarli qilish, malakali mutaxassis sifatida tayyorlab, til o'rgatib, jo'natish bo'yicha hozirgi ishlarni kengaytirishimiz lozim. Ana shunda xorijga ketayotgan yigit-qizlarimiz borgan joyida tezroq o'mashadi, ish topadi va qiynalmasdan yashab ketadi. Bu borada, albatta, davlat darajasida qayg'uirlishi shart.

Qadimda ham aholi yashash uchun qulay manzillarga ko'chib yurgan. Bu harakatni

Mamlakatimiz aholisi soni 37 millionga yaqinlashib qoldi. Nasib bo'lsa, yana besh-o'n yilda 50 million nufusga ega katta davlat bo'lamiz. Buncha odamni boqish, ish o'rni yaratishning o'zi bo'lmaydi. Shunday ekan, ba'zi yurtdoshlarimizning migrantlarimizni Vatanga qaytarish kerak, degan gaplari, chaqiriqlari asossizdek ko'rinadi.

tabiyy qabul qilishimiz kerak. Masalan, yurtdoshlarimiz ko'proq ketayotgan qo'shni davlatlardan Qozog'iston, Rossiyani olib qaraylik. Bu davlatlarning hududi katta, hududiga nisbatan aholisi kam. Shuning uchun ishchi kuchiga ehtiyoj yuqori. Bu ehtiyojni o'zbeklar va boshqa xalqlar ta'minlasa, buning nimasi yomon? Balki davlatlararo shartnomalar asosida Rossiya yoki Qozog'istonning huviillab yotgan qishloqlaridagi yerlarni ijaraga olib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun foydalanish mumkindir. Rossianing ham, Qozog'istonning ham yeri unumdor, tabiati seryog'in, daryolari ko'p, suv taqchilligi muammosi yo'q. Xalqimiz mehnatkash, mirishkor, ham o'zini boqadi, ham dunyo bozoriga o'zbek brendi asosidagi mahsulotlar yetishtirib beradi. Yoki Yevropadagi ishchi kuchiga muhtoj davlatlarga ham yoshlarimizni shartnoma asosida jo'natishimiz kerak. Chunki bu qit'a aholisi “keksayib” qoldi, u yerlarda ish o'rni ko'p.

Gohida ishga metroda kelib-ketaman. Ertalabki tirband soatlarda metro bekatida turgan, vagonlarga chiqayotgan yo'lovchilarga nazar tashlab, meni vahima bosadi. O'qishga, ishga shoshayotgan, aksariyati yoshlardan iborat buncha odamga ertaga doimiy ish topib bermasak, nima bo'ladi? Ularning har biriga ish, uy, mashina va hokazo kerak. Aholimiz esa kun emas, soat sayin ko'payib boryapti...

Odatda mehnatkash insonlar, ko'proq qiyinchilik ko'rgan oilalardagi ota-onalar farzandlarining o'zidan ustun, bilimli, o'qimishli odamlar bo'lishini, o'zi ko'rgan azoblarni ular ko'rmasligini istaydi. Qiynalib topgan mablag'ini bolalarining o'qishi, mutaxassis bo'lib yetishishi uchun sarflaydi. Ota-onasining qiynalib pul topayotganini ko'rgan bolalar ham ular istagan farzand bo'lishga intiladi. Natijada bunday yigit-qizlardan kelgusida yaxshi mutaxassis, olim, ilm-fan, ijod kishilari yetishib chiqadi. Bu hayot sinovidan o'tgan haqiqat.

Shunday ekan, bizdan xorijga chiqib ketayotgan oddiy oilalarning farzandlari bir kun kelib yirik shaxslar — turli sohaning bilimdon, malakali mutaxassislariga aylanadi va xalqimiz mana shu yo'l bilan dunyoning barcha davlatida mustahkam o'rnashadi. Dunyoning hamma burchagida vatandoshlarimiz muqim o'rnashib, ishlasa, farovon yashasa, bu yaxshi-ku!

Xitoy kompaniyalari bugun O'zbekistonning barcha hududida qo'shma korxonalar ochdi. Bu uzoqni ko'zlagan davlatning aqlli tadbiri. Xalqimiz ham xuddi xitoyliklarga o'xshab o'zining zukkoligi, aqli, tadbirkorligi-yu mehnatkashligi bilan dunyoni zabt etishiga ishonamiz. Shu o'rinda, atoqli faylasuf shoirimiz Abdulla Oripovning sarlavhaga chiqarilgan misrasiga qaytamiz. Donishmand shoir necha yillar oldin anglagan va yozgan bu misra zamiridagi haqiqat bugun ham mayoqdek xalqimizga yo'l ko'rsatib turibdi.



Chet elga ish izlab, pul topish maqsadida chiqib ketayotgan yoshlarimizni qonuniy asosda yuborishimiz, o'zga davlatlarda ularning haq-huquqlarini himoya qilishimiz zarur. Avvalo, ularni bu yerda qisqa muddatli kurslarda o'qitib, kasb-hunarli qilish, malakali mutaxassis sifatida tayyorlab, til o'rgatib, jo'natish bo'yicha hozirgi ishlarni kengaytirishimiz lozim. Ana shunda xorijga ketayotgan yigit-qizlarimiz borgan joyida tezroq o'rnashadi, ish topadi va qiynalmasdan yashab ketadi. Bu borada, albatta, davlat darajasida qayg'uirlishi shart.

deb javob berishni bilmay, “Ularning tilini bilmaysan-ku, to'g'rimi?” dedim.

— O'rganaman. Inglizchada gapirishni o'rgandim-ku!

To'g'risi, menday sovet maktabida o'qigan, muayyan qoliplarga o'rgangan odam uchun bu mutlaqo yangi gap edi.

— Dizayner! Qurilish bo'yicha dizayner bo'lmoqchiman. Toshkentda qurilayotgan uylarga qarang, hammasi bir xil. Men dunyo arxitekturasini Toshkentga olib kelmoqchiman. Dunyo rang-barang. Shaharlarimiz ko'rinishi ham rang-barang bo'lsin.

yozgandi. Shunda hali qiz bolalarning oliy ma'lumot olishi uncha urf bo'lmagan olis Ko'kdaladagi qishloq maktabining o'qituvchisi — muallimimiz miyig'ida kulib, “Ilohim, niyatlaringga yetgin, qizim!” degandi va ko'zini olib qochgandi.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “Kolopak” MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 875.
44909 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolopak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Xayriddinmurod Abulfayzov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy